



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

2021 yil « 9 » декабрь

№ ПФ-32

“Янги Ўзбекистон” массивларини қуриш ва ҳудудларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишини таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида

Аҳолининг уй-жой шароитини яхшилаш, ҳудудларда замонавий шаҳарсозлик талаблари асосида кўп қаватли уй-жойлар, ижтимоий соҳа ва инфратузилма объектлари ҳамда муҳандислик-коммуникация тармоқлари қурилишини жадаллаштириш, ер ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва аҳоли пунктларининг урбанизация жараёнларини ривожлантириш мақсадида:

1. Қурилиш вазирлиги, Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳамда Молия вазирлигининг туман (шаҳар) марказларига яқин ва уй-жойга талаб юқори бўлган ҳудудларда Фарғона вилояти Бағдод туманида барпо этилган “Мурувват” массиви намунаси асосида “Янги Ўзбекистон” массивларини қуриш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

2022 йилда қуриладиган “Янги Ўзбекистон” массивларининг манзилли рўйхати 1-иловага мувофиқ тасдиқлансин.

2. Белгилансинки, “Янги Ўзбекистон” массивларида кўп қаватли уй-жойлар, муҳандислик-транспорт коммуникацияси, ижтимоий соҳа, ишлаб чиқариш, савдо ва хизмат кўрсатиш объектлари комплекс тарзда қурилади. Бунда:

кўп қаватли уй-жойларнинг қурилиш ости ер участкалари тадбиркорлик субъектларига электрон онлайн-аукцион орқали ижара ҳуқуқи асосида реализация қилинади;

кўп қаватли уй-жойларга **туташ ер участкалари** уй-жой қуриб битказилганидан кейин маҳаллий ижроия ҳокимлик органининг тегишли қарори билан кўп қаватли уй-жой мулкдорларига **доимий фойдаланиш ҳуқуқи** асосида ажратиб берилади;

массивларда ташкил этиладиган ишлаб чиқариш, савдо ва хизмат кўрсатиш объектларини қуриш учун ер участкалари тадбиркорлик субъектларига белгиланган тартибда **электрон онлайн- аукцион орқали мулк ва ижара ҳуқуқлари асосида реализация қилинади;**

электрон онлайн-аукционда ғолиб деб топилган тадбиркорлик субъектларига кўп қаватли уй-жойлар қурилиши учун “ССС” ва ундан юқори рейтингга эга бўлган қурилиш ташкилотларини жалб қилишга рухсат этилади.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 21 апрелдаги ПҚ–5087-сон қарорига мувофиқ халқ депутатлари туман (шаҳар) Кенгашларига олис ва чекка ҳудудларда жойлашган ер участкаларига бўлган мулк ҳуқуқи ва ижара ҳуқуқини электрон онлайн-аукционга қўйишда ер участкасининг **бошланғич нархини 50 фоизгача камайтириш** ваколати берилганлиги маълумот учун қабул қилинсин.

3. “Янги Ўзбекистон” массивларида ташқи муҳандислик-транспорт коммуникациялари ҳамда ижтимоий соҳа объектларини қуришда қуйидагилар:

а) буюртмачи этиб:

массивларнинг қуриш лойиҳаларини ишлаб чиқиш, ҳудудларни ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш ишларини бажариш, шунингдек, ижтимоий соҳа объектларини қуриш бўйича – тегишлигига кўра Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари ҳузуридаги “Ягона буюртмачи хизмати” инжиниринг компаниялари ҳамда “Янги Андижон” шаҳрида объектларни қуриш ва улардан фойдаланиш дирекцияси” ДУК;

автомобиль йўлларини қуриш бўйича – Автомобиль йўллари қўмитаси;

иситиш қозонхоналари ва иссиқлик тармоқларини қуриш бўйича – Уй-жой коммунал хизмат кўрсатиш вазирлиги;

ичимлик ва оқова сув таъминоти тармоқларини қуриш бўйича – “Ўзсувтаъминот” АЖ;

электр ва газ таъминоти тармоқларини қуриш бўйича – “Ҳудудий электр тармоқлари” АЖ ва “Ҳудудгазтаъминот” АЖ;

алоқа тармоқларини қуриш бўйича – “Ўзбектелеком” АЖ белгилансин;

б) массивларни қуриш лойиҳаларини ишлаб чиқиш бўйича бош лойиҳачи этиб “Қишлоққурилишлойиҳа” МЧЖ, “ЎзшаҳарсозликЛИТИ” ДУК, “ТошуйжойЛИТИ” АЖ ва “ТошкентбошпланЛИТИ” ДУК белгилансин;

в) ташқи муҳандислик-транспорт коммуникациялари ҳамда ижтимоий соҳа объектлари қурилишини амалга оширувчи пудрат ташкилотлари давлат харидлари тўғрисидаги қонунчиликка мувофиқ аниқлансин.

4. Белгилансинки, “Янги Ўзбекистон” массивларида қуйидаги ишлар:

массивларни қуриш лойиҳаларини ишлаб чиқиш, ташқи автомобиль йўллари, ичимлик ва оқова сув таъминоти тармоқларини қуриш – Давлат бюджети маблағлари, ҳудудларда ташкил этиладиган тадбиркорлик инфратузилмасини ривожлантириш жамғармалари ва қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан;

ташқи электр ва газ таъминоти тармоқларини қуриш – “Ҳудудий электр тармоқлари” АЖ ва “Ҳудудгазтаъминот” АЖларнинг ўз маблағлари ҳамда асосланган ҳисоб-китобларга кўра Давлат бюджетидан ажратиладиган қисқа муддатли фоизли ссудалар ҳисобидан;

кўп қаватли уй-жойларни қуриш – тадбиркорлик субъектларининг ўз маблағлари, тижорат банкларининг кредитлари ва қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан;

ҳудудларни ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш ишларини бажариш – маҳаллий бюджет маблағлари ва қонунчилик ҳужжатларида тақиқланмаган бошқа манбалар ҳисобидан;

ижтимоий соҳа объектлари (мактабгача таълим муассасалари, умумтаълим мактаблари, тиббиёт пунктлари, иситиш қозонхоналари ва бошқалар)ни қуриш – Давлат бюджетидан ажратиладиган маблағлар ҳисобидан амалга оширилади. Бунда, ижтимоий соҳа объектлари давлат-хусусий шериклик асосида қурилганда, ушбу ишлар давлат-хусусий шериклик тўғрисидаги битимга мувофиқ бажарилади.

5. Молия вазирлиги (Ишметов) 2021 йилда Ўзбекистон Республикасининг ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантириш дастури доирасида ўзлаштирилмаган 300 млрд сўм миқдоридagi маблағларни тенг улушларда Молия вазирлиги ҳузуридаги Сув таъминоти ва канализация тизимларини ривожлантириш жамғармаси ҳамда Автомобиль йўлларини ривожлантириш мақсадли жамғармаси ҳисоб рақамига ўтказсин.

6. Ушбу Фармоннинг 2-илоvasида кўрсатилган қишлоқ хўжалигига мўлжалланган паст рентабелли 489 гектар ер майдонлари “Янги Ўзбекистон” массивларини қуриш учун қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ерлар тоифасидан тегишинча аҳоли пунктларининг ерлари ҳамда саноат мақсадларига мўлжалланган ерлар тоифасига ўтказилсин.

Белгилаб қўйилсинки:

қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкаларинини мазкур Фармонга мувофиқ олиб қўйиш сабабли қишлоқ хўжалиги ва ўрмон хўжалиги ишлаб чиқариши нобудгарчиликлари ўрнини қоплаш бўйича компенсация тўловлари ундирилмайди;

ушбу ер участкаларидан мақсадли фойдаланилиши учун Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси ва вилоятлар ҳокимлари шахсан жавобгар ҳисобланади.

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ҳамда вилоятлар ҳокимликлари қишлоқ хўжалигига мўлжалланган ер участкалари қисқариб кетишининг олдини олиш мақсадида 2023 йил 1 январга қадар ушбу Фармон билан тоифаси ўзгараётган суғориладиган ер участкалари майдонининг беш баравари миқдорида янги ерлар ўзлаштирилишини таъминласин. Бунда, қишлоқ хўжалигига мўлжалланган янги ер участкалари Кадастр агентлиги томонидан белгиланган тартибда ҳисобга олинганидан сўнг ўзлаштирилган ҳисобланади.

Кадастр агентлиги (Умаров) Қишлоқ хўжалиги вазирлиги (Ходжаев) билан биргаликда Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ҳамда вилоятлар ҳокимликлари томонидан қишлоқ хўжалигига мўлжалланган янги ер участкалари ўз вақтида ва белгиланган миқдорда ўзлаштирилишини қатъий назорат қилсин.

7. Қурилиш вазирлиги, Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги ҳамда Молия вазирлигининг “Янги Ўзбекистон” массивлари билан биргаликда олдинги йилларда барпо этилган массивларнинг бўш турган ер участкаларида ҳам уй-жойларни қуришни давом эттириш тўғрисидаги таклифи маъқуллансин.

Вазирлар Маҳкамаси Қурилиш вазирлиги (Зокиров), Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги (Бобоев), Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликларининг таклифларига асосан бир ой муддатда олдинги йилларда барпо этилган массивларнинг бўш турган ер участкаларида

ва уй-жойга талаб юқори бўлган бошқа ҳудудларда қуриладиган уй-жойларнинг манзилли рўйхатини ва қурилиш параметрларини тасдиқласин.

Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари тасдиқланган манзилли рўйхат асосида уй-жой қуриш учун ер участкаларининг белгиланган тартибда электрон онлайн-аукционга чиқарилишини таъминласин.

8. Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари бир ой муддатда “Янги Ўзбекистон” массивларини қуриш лойиҳаларини ишлаб чиқиш ва уларда қурилиш ишларини ташкил этишга “Қишлоқ қурилиш инвест” ИК МЧЖ ҳамда “Ўзшаҳар қурилиш инвест” ИК МЧЖларни жалб қилиш бўйича таклифларни Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

9. Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги (Воитов) Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши ва вилоятлар ҳокимликлари билан биргаликда икки ой муддатда 2022 йилда “Янги Ўзбекистон” массивларига туташ ва яқин ҳудудларда ташкил этиладиган кичик саноат зоналари ва технопарklar рўйхатини тасдиқласин.

10. Қурилиш вазирлиги (Закиров):

а) 2022 йил 1 июнга қадар 2023–2026 йилларда қуриладиган “Янги Ўзбекистон” массивларининг манзилли рўйхатини шакллантирсин ва Вазирлар Маҳкамасига тасдиқлаш учун киритсин;

б) бир ой муддатда:

“Янги Ўзбекистон” массивларида қуриш учун таклиф этиладиган кўп қаватли уй-жойларнинг намунавий лойиҳаларини ишлаб чиқсин ва лойиҳа ечимларини ўзининг расмий веб-сайтида жойлаштирсин;

кўп қаватли уй-жойлар қурилишида энергия тежамкор материаллардан фойдаланишни назарда тутувчи талабларни ишлаб чиқсин ва уларнинг шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига киритилишини таъминласин;

шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига кўп қаватли уй-жойларнинг ертўлаларини фойдали майдон сифатида ишлатиш бўйича тегишли ўзгартириш киритилишини таъминласин;

в) Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари билан биргаликда кўп қаватли уй-жойларни лойиҳалаш ва қуришда белгиланган қурилиш нормалари ва қоидаларига, қурилиш-монтаж ва пардозлаш ишларини бажариш сифатига қатъий риоя этилиши бўйича ташкилий-техник тадбирлар амалга оширилиши устидан тизимли назорат ўрнатсин;

г) тадбиркорлик субъектлари томонидан кўп қаватли уй-жойларни қуриш бўйича лойиҳа-смета ҳужжатлари қонунчиликда белгиланган муддатларда тайёрланиши, келишилиши ва қурилиш ишлари бошланишини таъминласин.

11. Ўзбекистон Миллий телерадиокомпанияси (Хаджаев) ва Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги (Кўчимов) Молия вазирлиги (Ишметов), Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқартириш вазирлиги (Бобоев), Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимликлари билан биргаликда мазкур Фармоннинг мазмун ва моҳияти оммавий ахборот воситалари орқали кенг ёритилишини таъминласин.

12. Қурилиш вазирлиги (Закиров) Инвестициялар ва ташқи савдо вазирлиги (Воитов) билан биргаликда бир ой муддатда уй-жой қурилиш кластерларини ташкил этиш ва уларни қўллаб-қувватлаш бўйича Ўзбекистон Республикаси Президенти қарори лойиҳасини ишлаб чиқсин ва Вазирлар Маҳкамасига киритсин.

13. Бош прокуратура (Юлдашев) “Янги Ўзбекистон” массивлари қурилишида нархларнинг асоссиз оширилиши, рақобат тўғрисидаги қонунчилик бузилиши ҳамда тасдиқланган лойиҳаларнинг ўзбошимчалик билан ўзгартирилишига йўл қўймаслик устидан таъсирчан назорат ўрнатсин.

14. Қурилиш вазирининг биринчи ўринбосари Д.К. Адиловга “Янги Ўзбекистон” массивларида қурилиш-монтаж ишларини ўз вақтида ва сифатли амалга ошириш, уларда маҳаллий замонавий қурилиш материаллари ва ускуналарини кенг қўллаш орқали уй-жойларнинг нархини пасайтириш ҳамда қурувчи ташкилотлар учун қулай шарт-шароитлар яратиш юзасидан шахсий жавобгарлик юклансин.

15. Мазкур Фармоннинг ижросини ташкил қилишга масъул этиб Ўзбекистон Республикаси Бош вазирининг ўринбосарлари А.Ж. Раматов ва Ж.А. Қўчқоров, молия вазири Т.А. Ишметов, Қорақалпоғистон Республикаси Вазирлар Кенгаши Раиси, вилоятлар ва Тошкент шаҳар ҳокимлари белгилансин.

Фармоннинг ижросини ҳар чорақда муҳокама қилиб бориш, ижро учун масъул идоралар фаолиятини мувофиқлаштириш ва назорат қилиш Ўзбекистон Республикасининг Бош вазири А.Н.Арипов зиммасига юклансин.

Амалга оширилаётган чора-тадбирлар натижадорлиги юзасидан Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрациясига ҳар чорақ якуни бўйича ахборот бериб борилсин.

**Ўзбекистон Республикаси
Президенти**



Ш. Мирзиёев

Тошкент шаҳри

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN
JAMIYAT
BOSHLOYIHA-QIDIRUV
INSTITUTI



ОСА
РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
ОБЩЕСТВО СОГРАНИЧЕННОЙ
ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ
ГОЛОВНОЙ ПРОЕКТНО-
ИЗЫСКАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ

QISHLOQQURILISHLOYIHA Namangan viloyati filiali

SHARTNOMA № 06-180-2022

Namangan viloyati Pop tumani "Mirishkor" MFYda
"Yangi O'zbekiston" massivi suv inshootlari va oqava suv
inshootlari qurilishi uchun (birlamchi loyiha oldi xujjatlari
bilan birga (под ключ) loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash.

Namangan sh- 2022 yil

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish bo'yicha

06-180-2022-sonli shartnoma

“03” *May* 2022 yil

Namangan shahri

«QISHLOQQURILISHLOYIHA» MCHJ Namangan filiali Nizomi asosida ish yurituvchi direktor v.v.b E.A.Yo'ldoshev 2022 yil 05 yanvardagi №09 sonli bosh ishonchnoma (Генеральной доверенности) asosida kelgusida «BAJARUVCHI» deb nomlanuvchi bir tomondan hamda ikkinchi tomondan **Suv ta'minoti va oqava suv ob'ektlarni qurish bo'yicha injiniring kompaniyasi UK Namangan viloyati xududiy boshqarmasi** nomidan Nizom asosida ish yurituvchi kompaniya direktori M.M.Bobajonov kelgusida «Buyurtmachi» deb nomlanib, quyidagilar haqida shartnoma tuzdilar:

1.Shartnomaning mazmuni

1.1. “Bajaruvchi” Namangan viloyati Pop tumani “Mirishkor” MFYda “Yangi O'zbekiston” massivi suv inshootlari va oqava suv inshootlari qurilishi uchun (birlamchi loyiha oldi xujjatlari bilan birga (под ключ) loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi, “Buyurtmachi” esa bajarilgan ishlarni qabul qilib olib, ishlar bo'yicha xarajatlarni o'z vaqtida to'lab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

1.2. “Bajaruvchi” “Buyurtmachi” tomonidan taqdim etilgan me'moriy rejalashtirish, loyihalash topshiriqlarida ko'rsatilgan ishlarni «Korxonalar, bino va inshootlar qurilishiga loyiha-smeta hujjatlarining tarkibi, ishlab chiqish tartibi va tasdiqlash» haqidagi SHNQ1.03 01-03 qoida va qo'llanmalari va mazkur shartnomaning hujjatlariga asoslanib bajaradi.

1.3. Bajariladigan ishlarga ilmiy, texnik, iktisodiy va boshqa talablar ishlarini bajarish uchun texnik topshiriqlarda nazarda tutiladi.

1.4. “Bajaruvchi” tomonidan bajariladigan ishlarning muddati loyiha ishlariga kalendar reja asosida (ilova №3).

1.5. “Bajaruvchi” “Buyurtmachi”ning ruxsatini kutmasdan, qo'shimcha ichki xo'jalik shartnomasini (shartnomada belgilanmagan, lekin mazkur shartnomasini bajarishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan maxsus tadqiqot ishlariga) tuzishga xaqlidir.

1.6. Xo'jalik shartnomasini bajarishdan bosh tortish va shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

1.7. Ishlarni moliyalashtirish xisobot yili uchun belgilangan tartibda tasdiqlangan manziliy dasturda belgilangan limit mablag'lari doirasida va ko'rsatilgan moliyalashtirish manbai xisobidan amalga oshiriladi.

2. Shartnoma bo'yicha ishlarning narxi

3.1. Bajariladigan loyiha ishlarning jami qiymati,

380 000 000 (Uch yuz sakson million) so'm, QQS 15% bilan.

3.2. “Buyurtmachi” tomonidan “Bajaruvchi”ga shartnomani belgilangan tartibda tasdiqlangandan so'ng 3 (uch) bank kunida shartnoma qiymatining 15 foiz (30 foizgacha mumkin)dan kam bo'lmagan foizlik miqdorida bo'nak (avans) to'lovini amalga oshiradi

114 000 000 (Bir yuz o'n to'rt million) so'm.

3.3. To'liq xizmatlar (ishlar) bajarilgandan so'ng bajarilgan ishlar dalolatnomasi hisob faktura asosida 5 (besh) bank kunida qolgan 85 foiz to'lov «Bajaruvchi»ning hisob raqamiga o'tkazib beriladi.

3.4. Bajariladigan ish hajmining umumiy qiymati Respublikamiz milliy valyutasi so'mda belgilanadi.

3.5. Bajariladigan ishning qiymati, narx oshganligi natijasida o'zgarganda, «Buyurtmachi»ga oldindan xabardor qilib, o'zgargan narxini asoslagan holda ish bajariladi.

3.6. «Buyurtmachi» o'zgargan narxlar asosida qo'shimcha to'lovlarni byudjetda ko'rsatilgan limit doirasida shartnomaga qo'shimcha kelishuvlar tuzilishi asosida amalga oshiradi.

3.7. Loyiha-smeta hujjatlarining aniq narxi davlat ekspertiza ko'rigidan o'tkazilganidan so'ng, ularning xulosasi asosida aniklanadi.

3. Tomonlarning majburiyatlari

2.1. "Bajaruvchi"ning majburiyatlari;

"Bajaruvchi" "Buyurtmachi" tomonidan berilgan loyiha oldi hujjatlar, texnik topshiriq va boshqa boshlang'ich hujjatlar asosida ishlarni bajarishi lozim;

"Buyurtmachi" bilan bajariladigan ishlarning bosqichlari va natijalarini kelishish;

Mazkur shartnoma bo'yicha bajariladigan ishlarning borishi haqida talab qilingan xollarda "Buyurtmachi"ga axborot jo'natadi.

"Bajaruvchi" mazkur shartnoma asosida bajarilgan ishlarni Buyurtmachining ruxsatisiz uchinchi shaxsga berishga haqli emas.

Inshootda "Bajaruvchi" tomonidan olib borilayotgan qurilish montaj ishlari loyiha-smeta hujjalari asosida bajarilayotganligini tekshirish;

Belgilangan tartibda mualliflik nazoratini olib borish, "Bajaruvchi" tomonidan loyiha yechimlariga hamda qurilish normalariga rioya qilingan holda ishlar bajarilayotganligini nazorat qilish;

Qurilish davrida kelib loyiha-smeta hujjalari bo'yicha kelib chiqadigan muammolarni qisqa muddatlarda ijobiy hal etilishida bevosita ishtirok etish;

Buyurtmachidan ishni bajarish uchun kerak bo'ladigan barcha axborotlarni talab qilib olish, loyiha yechimlari bo'yicha Buyurtmachining so'rovlariga o'z vaqtida javob qaytarish;

"Bajaruvchi" tomonidan loyihadan chetga chiqqan xolda qurilish-montaj ishlari bajarilgan taqdirda zudlik bilan bu xaqda Buyurtmachini xabardor etish.

2.2. Buyurtmachining majburiyati:

"Bajaruvchi" o'z vaqtida ishni bajarish uchun kerak bo'ladigan va talab qilingan loyiha oldi hujjatlar, texnik topshiriq va boshqa boshlang'ich hujjatlar axborotlarni o'z vaqtida berish;

Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan sharoitlarda belgilangan narxni o'z vaqtida to'lash hamda g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tkazish;

"Bajaruvchi" tomonidan bajarilishi lozim bo'lgan ishlarni, mazkur shartnomada nazarda tutilgan sharoitlarda bajarilishini nazorat qilish;

"Bajaruvchi" bilan bajarilgan ishlarning bosqichlari va natijalarini kelishish;

Ishni bajarish uchun qurilish ob'ektiga to'siqsiz kirishni ta'minlash;

Bajaruvchi tomonidan asosli e'tirozlar bildirilganda ushbu e'tirozlarni ko'rib chiqish;

Bajarilgan ishlarni belgilangan tartibda qabul qilib olish.

Bajarilgan ish xajmini qabul qilib olguncha "Bajaruvchi" ishtirokida bajarilgan ishlarni ko'zdan kechiradi va uning sifatiga e'tibor beradi;

Agar bajarilgan ish talabga javob bermasa, ya'ni sifatsiz bo'lsa, «Buyurtmachi» qabul qilmaslikka va sifatsiz bajarilgan ish qismini qaytadan to'liq, sifatli, bajarib berishini talab qilishga haqli bo'ladi.

Bajarilgan ish xajmi «Buyurtmachi» tomonidan to'liq qabul qilib olingandan so'ng 10 kun muddatda «Bajaruvchi»ga shartnomada ko'rsatilgan mablag'ning qolgan qismini to'liq to'lab berishi shart.

4. Ishlarni topshirish va qabul qilish tartibi.

4.1. Bajarilgan ishlarni baholash va qabul qilib olish texnik topshiriq talablari asosida baholanadi.

4.2. "Bajaruvchi" tomonidan topshirilishi va rasmiylashtirilishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yhati texnik topshiriqda aniqlanadi.

4.3. "Bajaruvchi" ishlarni bajarib bo'lgach, "Buyurtmachi"ga topshirish-qabul qilish dalolatnomasi bilan birgalikda ilova qilib 3 (uch) nusxada loyiha-smeta hujjatlar to'plamini taqdim etadi.

4.4. "Buyurtmachi" mazkur shartnomaning 4.2.-bandida ko'rsatilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini va hisobot hujjatlarini bajarilgan ishlarni qabul qilish majburiyatini oladi va "Bajaruvchi"ga imzolangan, yoki asosli e'tiroz bildirilgan topshirish-qabul qilish dalolatnomasini jo'natadi.

4.5. Bajarilgan ishlarni topshirish–qabul qilish davomida “Buyurtmachi”ning asosli e’tirozi bo’lsa, kamchiliklar ro’yhati va ularni bartaraf etishning aniq muddatini belgilovchi ikki tomonlama dalolatnoma tuziladi.

4.6. Agar ishlarni bajarish jarayonida keyinchalik uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi ma’lum bo’lib qolsa, tomonlar 5 (besh) ish kun mobaynida bir–birlarini ishlar to’xtatilganligi haqida habardor qilishlari shart va 10 (o’n) ish kun mobaynida ishlarni davom ettirish uchun maqsadga muvofiq bo’lgan yo’nalishlarini oydinlashtiruvchi masalalarni ko’rib chiqishlari kerak. Ishlar to’xtatilgan hollarda tomonlar uchun O’zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan majburiyatlar yuklanadi.

4.7. O’zaro hisob–kitoblar qilishning muddati kelganligi tomonlarning biri mazkur shartnomadagi ishlarni to’xtatish haqidagi yozma xabarnoma bergan sanadan hisoblanadi.

5. Tomonlarning javobgarligi

5.1. “Buyurtmachi” o’z vaqtida oldindan to’lanishi lozim bo’lgan to’lovlarni to’lamagan hollarda, ishlarni yakunlash muddati to’lov kechiktirilgan muddatga o’zaytiriladi.

5.2. “Buyurtmachi” to’lov talabnomasi aktsepti (qabul qilish)ni asossiz ravishda to’la yoki qisman rad etganligi, shuningdek hisob–kitoblarning boshqa shakllardagi ishlarga xaq to’lashdan bosh tortganligi (bank muassasasiga to’lov topshiriqnomasini taqdim etmaslik, chek bermaslik, akkreditiv bermaslik va xakozo) uchun “Buyurtmachi” to’lovdan bosh tortgan yoki rad etgan summaning 0.5% xajmida penya to’laydi.

5.3. “Buyurtmachi” olgan majburiyatini bajarmagan taqdirda “Bajaruvchi”ga o’tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya to’laydi. Ammo bunda penyaning umumiy miqdori bajarilmagan ish yoki ko’rsatilmagan xizmatning 50 foizidan ortib ketmasligi kerak.

5.4. “Bajaruvchi” shartnomada ko’rsatilgan majburiyatini bajarishda, xizmat ko’rsatishda olgan majburiyatlarini buzganligi uchun “Buyurtmachi”ga o’tkazib yuborilgan xar bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,4 foiz miqdorida penya to’laydi. Ammo bunda penyaning umumiy miqdori bajarilmagan ish yoki ko’rsatilmagan xizmatning 50 foizidan ortib ketmasligi kerak.

5.5. Bajarilgan ishlar (bosqichlar)da kamchilik va nuqsonlar paydo bo’lganda “Bajaruvchi” ularni beg’araz bartaraf etish majburiyatini oladi.

5.5. Agar “Bajaruvchi” o’tgan bosqich uchun hisob bermasa, keyingi bosqich uchun moliyalashtirish ishlari bajarilmaydi.

5.6. Agar shartnoma shartlarining buzilishi yengib bo’lmaydigan xolatlar (fors–major) natijasida yuzaga kelsa tomonlar o’z harakatlarida O’zbekiston Respublikasi qonunchilik me’yorlari asosida ish ko’radi.

5.7. Shartnomani ijro etmaganligi yoki yetarli darajada bajarmaganligi uchun, javobgarlik agar shartnomada o’zgacha holat ko’zda tutilmagan bo’lsa O’zbekiston Respublikasi «Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy–huquqiy bazasi to’g’risida»gi qonunning 25–32–moddalariga asosan javobgarlik choralari qo’llaniladi.

5.8. Agar bajarilgan ishlar, ko’rsatilgan xizmatlar shartnoma shartlariga mos kelmasligi, “Buyurtmachi” bajarilgan ishlardan bosh tortishga xaqli.

“Bajaruvchi”dan shartnoma shartlariga mos kelmasa ish qiymatining 5% miqdorida jarima undirishga, agar bajarilgan ishlarga, ko’rsatilgan xizmatlarga xaq to’lab qo’yilgan bo’lsa, belgilangan tartibda to’langan summani qaytarishni talab qilishga xaqli. Jarima to’lov talabnomasi moliyalashtirish muassasasiga sifati lozim darajada bo’lmagan ishlar xaqidagi dalolatnoma tuzilgan vaqtdan boshlab bir oy mobaynida taqdim qilinishi lozim. Jarima jadvalining to’lov talabnomasi belgilangan bir oylik muddatdan keyin taqdim etilsa, jarimani undirish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5.9. Agar Bajaruvchi loyiha–smeta hujjatlarini belgilangan talab doirasida bajarmasa, loyiha–smeta hujjatlarida kamchilik va nuqsonlar aniqlangan taqdirda “Bajaruvchi” “Buyurtmachi”ga yetkazilgan zararni to’laydi. “Bajaruvchi” ishlar sifatli, shartnoma shartlariga mos kelishiga javob beradi.

5.10. Shartnoma shartlarini ijro etmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlik, agar shartnomada ko’zda tutilmagan bo’lsa, O’zbekiston Respublikasi

“Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini shartnomaviy-xuquqiy bazasi to’g’risida”gi qonunning tegishli moddalariga asosan javobgarlik choralari ko’riladi.

5.11 Tomonlar nizolar bo’yicha kelisha olmagan holda Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga muroajaat qilish xuquqiga ega.

6. Bartaraf etilib bo’lmaydigan kuch xolati (fors - major)

6.1. Agar tomonlar majburiyatlarining qisman yoki to’la ijro etilmay qolishi tabiiy hodisalar, harbiy harakatlar va boshqa bartaraf eti bo’lmaydigan kuchlar sababli sodir bo’lgan bo’lsa, xamda bu holat mazkur shartnoma ijrosiga bevosita ta’sir ko’rsatgan bo’lsa, tomonlar mazkur shartnoma bo’yicha majburiyatlarining qisman yoki to’la ijro etilmay qolgani uchun javobgarlikdan ozod bo’ladilar. Mazkur shartnoma bo’yicha majburiyatlarning ijro muddati bartaraf etib bo’lmaydigan vaziyat, shuningdek shu vaziyat keltirib chikargan oqibat natijasiga mos ravishda orqaga suriladi.

6.2. Agar bartaraf etib bo’lmaydigan kuch vaziyati yoki uning oqibatlari 3 oydan ortiq vaqtga cho’ziladigan bo’lsa, “Bajaruvchi” va “Buyurtmachi” qurilishni davom ettirish yoki noma’lum vaqtga to’xtatish uchun chora tadbirlar ko’rishni muhokama qiladilar.

Agar tomonlar 1 oy mobaynida bir to’xtamga kela olmasalar, tomonlarning har qaysisi shartnomani bekor qilinishini talab qilishga xaqlidir.

6.3. “Buyurtmachi” to’lov shartlarini o’z vaqtida bajarmasligi “Bajaruvchi” uchun «fors-major» holatiga teng hisoblanadi.

7. Qo’shimcha shartlar

7.1. “Buyurtmachi” 1.1.-bandda ko’rsatilgan ob’ektdan tashqari, “Bajaruvchi” tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ish natijalaridan foydalanishga haqli emas, “Bajaruvchi” esa olingan ish natijalaridan o’zining manfaatlari uchun foydalanish huquqiga ega.

7.2. Mazkur shartnomada ko’zda tutilmagan tomonlarning o’zaro munosabatlari O’zbekiston Respublikasining «Xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to’g’risida»gi qonuniga, hamda O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga asosan belgilanadi.

7.3. Tomonlar o’zlarining yuridik va bank rekvizitlari o’zgargan taqdirda, bir-birlarini 3(uch) bank kuni ichida xabardor qilishlari shart.

7.4. Shartnomani tuzish, ijro etish, o’zgartirish va bekor qilish, shuningdek keltirilgan zararni qoplash vaqtida tomonlar o’rtasida vujudga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda Toshkent iqtisodiy sudi tomonidan yoki tomonlarning kelishuviga binoan xakamlar sudi tomonidan ko’rib chiqiladi.

8. Shartnomaning amal qilish muddati va shartlari

8.1 Mazkur shartnoma tomonlar imzo chekkandan keyin kuchga kiradi va uning shartlari to’liq bajarib bo’lguncha haqiqiy hisoblanadi.

8.2. Mazkur shartnoma 3 nusxada tayyorlanadi va xar biri bir xil yuridik kuchga ega bo’liq taraflarning xar birida bir nusxadan saqlanadi.

8.3. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrga qadar o’z kuchida bo’ladi.

Shartnomaning ilovalari uning ajralmas qismi xisoblanadi:

Shartnoma bahosini kelishuv bayonnomasi (1-ilova)

Kalendar reja jadvali (2-ilova)

Smeta (3- ilova)

Massivlar kesimida loyiha-smeta qiymati (4-ilova)

10.Tomonlarning rekvizitlari:

“BUYURTMACHI”

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish suv ta'minoti va oqava suv ob'ektlarni qurish bo'yicha IK UK Namangan viloyati xududiy boshqarmasi

Manzil: Namangan shahar, Navoiy ko'chasi 24

Tel : 94-03-30-05

I/s : 301121860144017063201110042

STIR : 305982714, **OKED :** 70720

Moliya Vazirligi Yagona G'azna hisob varag'i

G'azna h/v: 2340 2000 3001 0000 1010

XKKM MB Toshkent shahar bosh boshqarmasi

MFO: 00014, **STIR:** 201 122 919

“BAJARUVCHI”

«Qishloqqurilishloyiha» MCHJ
Namangan viloyati filiali

Manzil: Namangan shahar Bank ko'chasi 9uy

Tel: 227-12-79

X/R: 20214000704767451001

Bank: XATB "DAVR BANK"

Toshkent shahar Yunusobod filiali

INN: 206 994 012. **OKED** 71110

MFO 01122.

Direktor:


Filial direktori v.v.b:



(Handwritten signature of M. Bobajonov)

M. Bobajonov

(Imzo)



(Handwritten signature of E. Yo'ldoshev)

E. Yo'ldoshev

(Imzo)

(Handwritten signature)

(Handwritten signature)

2022 yil «03» *May*
06-180-2022-sonli shartnomaga
1-ilova

06-180-2022 -sonli SHARTNOMA narxining kelishuv

BAYONNOMASI

Namangan viloyati Pop tumani “Mirishkor” MFYda “Yangi O‘zbekiston” massivi suv inshootlari va oqava suv inshootlari qurilishi uchun (birlamchi loyiha oldi xujjatlari bilan birga (под ключ) loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash maqsadida, biz quyida imzo chekuvchilar “Buyurtmachi” tomonidan direktor M.Bobajonov va “Bajaruvchi” tomonidan «Qishloqqurilishloyiha» MCHJ Namangan viloyati filiali direktori v.v.b E.Yo‘ldoshev tomonlar o‘rtasida loyiha-smeta xujjatlarini ishlab chiqarish narxini

380 000 000 (Uch yuz sakson million) so‘m, QQS 15% bilan.

Ushbu bayonnoma “Buyurtmachi” va “Bajaruvchi” o‘zaro hisob-kitoblarni qilish va 30% to‘lovni amalga oshirish uchun asos xisoblanadi 114 000 000 (Bir yuz o‘n to‘rt million) so‘m.



“BUYURTMACHI”

M.o (Imzo)

M.Bobajonov



“BAJARUVCHI”

M.o (Imzo)

E.Yo‘ldoshev

Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun
1-sonli smeta

Namangan viloyati Pop tumani "Mirishkor" MFYda "Yangi O'zbekiston" massivi suv inshootlari va oqava suv inshootlari qurilishi uchun (birlamchi loyiha oldi xujjatlari bilan birga (под ключ) loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash.

"Bajaruvchi" nomi

"Qishloqqurilishloyiha" MCHJ
Namangan viloyati filiali

"Buyurtmachi" nomi

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish suv ta'minoti va oqava suv ob'ektlarni qurish bo'yicha IK UK Namangan viloyati xududiy boshqarmasi

T/r	Ob'ekt nomi	Asos	Loyiha qiymati ming so'mda	Qiymat ming so'mda
1	2	3	4	5
1.	Namangan viloyati Pop tumani "Mirishkor" MFY da "Yangi O'zbekiston" massivi suv inshootlari va oqava suv inshootlari qurilishi uchun (birlamchi loyiha oldi xujjatlari bilan birga (под ключ) loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash	O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligining 19.08.2019yildagi №396-sonli buyrug'iga asosan tasdiqlangan nizomga asoslanib hisoblash ishlari bajarildi	13 000 000 000x 0,025	330 434 783
	Loyiha qiymati:			330 434 783
	QQS 15%:			49 565 217
	QQS bilan jami:			380 000 000

Smeta bo'yicha jami: 380 000 000 (Uch yuz sakson million) so'm, QQS 15% bilan.

Filial direktori v.v.b

Loyiha bosh muhandisi:

Ish yurituvchi:

Buyurtmachi: Direktor

M.o'

(Imzo)

M.o'

(Imzo)

E.Yo'ldoshev

S.Qo'ziboev

O.Solibaev

M.Bobajonov

KALENDAR REJA

T	Shartnoma bo'yicha ishning nomi va uning bajarilish bosqichlari	Ishning bajarilish vaqti	Ishning xisob narxi, ming so'm
1	2	3	4
1.	Namangan viloyati Pop tumani "Mirishkor" MFYda "Yangi O'zbekiston" massivi suv inshootlari va oqava suv inshootlari qurilishi uchun (birlamchi loyiha oldi xujjatlari bilan birga (под ключ) loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash.	30 kun muddatda boshlang'ich bunak (avans) to'lovi amalga oshirilgandan so'ng	380 000 000
	JAMI:		380 000 000

Eslatma: Shartnomani imzolanishi va to'lanishiga qarab ishning bajarilish vaqtini o'zgartirish xuquqini "Bajaruvchi" o'z zimmasiga qoldiradi.



"BUYURTMACHI"

M.o. (Imzo)

M. Bobajonov



"BAJARUVCHI"

M.o. (Imzo)

E. Yo'ldoshev

МУҲОКАМА АХБОРОТИ

03.05.22 йил

Наманган шаҳар

Наманган вилояти ҳудудидаги сув таъминоти ва оқава сув объектлари қурилиш бўйича инжиниринг компанияси УК Наманган вилояти ҳудудий бошқармаси томонидан 2022 йил 28 апрелдаги 74710-сонли лотга асосан Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги 684-сонли давлат харидлари тўғрисидаги қонуни 56 ва 58-моддалари талабларидан келиб чиқиб энг яхши таклифларни танлаш тури бўйича лойиха-смета ҳужжатларини тайёрлаш бўйича амалга ошириш режалаштирилган. Шунга асосан белгиланган муддатлар асосида Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги 684-сонли давлат харидлари тўғрисидаги қонуни 60 ва 61 моддалари талабларидан келиб чиқиб танлов савдолари ўтказилди мазкур танлов савдолари якуни бўйича “QISHLOQ QURILISH LOYIHA” MCHJ томонидан берилган таклифдан комиссия аъзолари иштирокидан энг мақбул деб топилди ушбу танлов жараёнлари бўйича расмийлаштирилган баённомалар давлат харидлари тўғрисидаги қонунни 62-моддасига асосан давлат буюртмачиси томонидан расмийлаштирилган кунда давлат харидларининг электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш куни ичида танлаш иштирокчилари томонидан танлаш ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар келиб тушмади. Юқоридаги ҳолатлардан келиб чиқиб, давлат буюртмачиси ва харид комиссияси томонидан қолиб деб топилган иштирокчи ўртасида шартнома тузилиши мумкин ҳисобланиши белгилаб олинди. Муҳокама учун белгиланган муддат тугаганидан кейин келиб тушга эътирозлар харид комиссияси томонидан кўриб чиқилмайди.

Давлат буюртмачи
ташкилот раҳбари



М.Бобажанов

Давлат буюртмачи
ташкилот бош ҳисобчиси

О.Қамолитдинов

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 74710 на приобретение Поп тумани Миришкор МФЙ да Янги Ўзбекистон массиви сув иншоотлари ва оқова сув иншоотлари қурилиши учун лойиха смета хужжатларини тайёрлаш учун

Способ проведения электронный

Дата 28.04.2022

Время рассмотрения 28.04.2022 08:48

Конкурсная комиссия ГУП Инжиниринговая компания по стр-ву объектов водоснабжения и канализации Министерства жилищно-коммунального обслуживания Республики Узбекистан, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	Bobajanov Muxtor Maxirjanovich	Рахбар	Сув инжиниринг
Секретарь комиссии	Гафурова Мадина Камолитдиновна	Кадрлар бўлими нозири	Сув инжиниринг
Член комиссии	Sharipov Shuxrat Sabirovich	Лойиха бўлими бош мутахассиси	Сув инжиниринг
Член комиссии	Adashov Ulug`bek Tursunxuja o`g`li	Иқтисод бўйича рахбар ўринбосари	Сув инжиниринг
Член комиссии	Mutalliyev Doston Rustamjon O`g`li	Бош мухандис	Сув инжиниринг
Член комиссии	Ismailov Ikramjon Rasuljonovich	Маркетинг бўлими бош мутахассиси	Сув инжиниринг

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 28.04.2022 года № лота 74710.

Метод оценки предложений – Метод наименьшей цены

Мин. балл: 75

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по разработке проектно-сметных работ
Подробное описание	Поп тумани Миришкор МФЙ да Янги Ўзбекистон массиви сув иншоотлари ва оқова сув иншоотлари қурилиши учун лойиха смета хужжатларини тайёрлаш учун
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	390 000 000.00
Стартовая сумма	390 000 000.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Лойиха ишлари тўлиқ (подключ) бажарилиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: Лойиха ишлари тўлиқ (подключ) бажарилиши лозим

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО " QISHLOQQURILISHLOYIHA "	25	25	23	Экспертная		
ULTRA GROUP МЧЖ	25	25	20	Экспертная		

Критерий №2 Лойихани белгиланган ШНҚ тартиб талаблари асосида бажариш

Тип: Текстовое значение

Описание: Лойихани белгиланган ШНҚ тартиб талаблари асосида бажариш

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО " QISHLOQQURILISHLOYIHA "	25	25	23	Экспертная		
ULTRA GROUP МЧЖ	25	25	21	Экспертная		

Критерий №3 охирги 3 йил давомида ичимлик сув тармоқлари лойихаларини амалга оширган бўлиши лозим

Тип: Текстовое значение

Описание: охирги 3 йил давомида ичимлик сув тармоқлари лойихаларини амалга оширган бўлиши лозим

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО " QISHLOQQURILISHLOYIHA "	25	25	24	Экспертная		
ULTRA GROUP МЧЖ	25	25	19	Экспертная		

Критерий №4 Лойихани белгиланган муддатда ишлаб чиқиш

Тип: Текстовое значение

Описание: Лойихани белгиланган муддатда ишлаб чиқиш

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО " QISHLOQQURILISHLOYIHA "	25	25	24	Экспертная		
ULTRA GROUP МЧЖ	25	25	18	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО " QISHLOQQURILISHLOYIHA "	390 000 000.00	380 000 000.00	26.04.2022 14:25:51	100.00
ULTRA GROUP	390 000 000.00	388 000 000.00	26.04.2022	97.94

МЧЖ			16:32:43	
-----	--	--	----------	--

Итоговая оценка участников включая финансовый части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО "QISHLOQQURILISHLOYIHA"	Прошел	100	100
ULTRA GROUP МЧЖ	Прошел	97.94	97.94

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 74710 от 28.04.2022 года на приобретение Поп тумани Миришкор МФЙ да Янги Ўзбекистон массиви сув иншоотлари ва оқова сув иншоотлари қурилиши учун лойиҳа смета ҳужжатларини тайёрлаш учун определила победителем:

ООО "QISHLOQQURILISHLOYIHA"
206994012

и резервный исполнитель: ULTRA GROUP МЧЖ (207207205)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Член комиссии	Adashov Ulug`bek Tursunxuja o`g`li	Согласен	
Председатель комиссии	Bobajanov Muxtor Maxirjanovich	Согласен	
Член комиссии	Mutalliyev Doston Rustamjon O`g`li	Согласен	
Член комиссии	Sharipov Shuxrat Sabirovich	Согласен	
Член комиссии	Ismailov Ikramjon Rasuljonovich	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

"ТАСДИҚЛАЙМАН"

"Ўзсувтаъминот" АЖ боқсарув ранси в-б

С.Самфаразов

2022 й.

«Ўзсувтаъминот» АЖ боқсарув ранси в-б 2022 йилда куриладиган Янги Ўзбекистон массивларини ичимлик сув таъминоти ва оқова сув тизимларини куриш ишлари бўйича лойиха-қидирув ишлари учун

МАНЗИЛЛИ РЎИХАТИ

(Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 14 февралдаги 19-сонли баёни)

06.03.2022 йил келишиб берилган манзилли рўйхатлар ўрнига

(млн.сўм)

№	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	
Т/Р	Объектлар номи ва манзили	Лойиха қуввати ҳос қилинган бирликда	Курилиш бошланган ва фойдаланишга топширилган йил	Объект курилишининг ҳисобий (дастлаб) тахминий қиймати	Лойиха босқич ДТИА, ДТИХ, ТИА, ТИХ, Л, ИХ, ИЛ, ТХ	Объектнинг лойиха-қидирув ишлари қиймати*	Лойиха бошдан 01.01.22 й. ҳолатига бажарилган лойиха-қидирув ишлари	01.01.22 й. ҳолатига лойиха-қидирув ишлари қолдиқ қиймати	2022 йил учун капитал қўйималар лимити	Лойиха-смета ҳужжатларини буюртмачига топшириш муддати (ой, йил)	Теңдер (таълоб)лар натижасига бўйича баёнома рақами ва санаси	Лойихачи ташкilot номи
1	Республика бўйича жами	334,01 км 55 объект		616 363,05		15 176,49			15 176,49			
	Қорақалпоғистон Республикаси	12,4 км 5 объект		11 107,00		317,00			317,00			
1	Қетейли тумани "Ақтуба" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	5,1 км 2 объект		4 445,00	ИЛ	128,00			128,00		лот № 63048 12.04.2022 й	"QISHLOQQURILISHLOY ИНА" МЧЖ
2	Қораўлак тумани "Есим" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	3,7 км 2 объект		3 750,00	ИЛ	107,00			107,00		лот № 63044 12.04.2022 й	"QISHLOQQURILISHLOY ИНА" МЧЖ
3	Қонликўл тумани "Наурыз" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	3,6 км 1 объект		2 912,00	ИЛ	82,00			82,00		лот № 63530 12.04.2022 й	"QISHLOQQURILISHLOY ИНА" МЧЖ
	Бухоро вилояти	22,1 км 4 объект		46 019,05		1 305,05			1 305,05			
4	Ғиждувон тумани "Баракат" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	16,1 км 2 объект		29 850,00	ИЛ	840,05			840,05		лот № 65709 21.04.2022 й	"DIAMOND NETWORK" МЧЖ
5	Қорақўл тумани "Дурмон" массивида куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	6,0 км 2 объект		16 169,05	ИЛ	465,00			465,00		лот № 65736 21.04.2022 й	"GIDRO CIVIL ENGINEERING" МЧЖ

№	Т/Р	Объектлар номи ва манзили	Лойиха куввати хос бирликда	Курилиш бошланиши ва фойдаланишга топириши йили	Объект курилишининг ҳисобий (дастлабки) тахминий қиймати	Лойиха босқичи ДТИА, ДТИХ, ТИА, ТИХ, Л, ИХ, ИЛ, ТХ	Объектнинг лойиха-киривуви ишлари қиймати*	Лойиха бошдан 01.01.22 й. ҳолатига бажарилган лойиха-киривуви ишлари	01.01.22 й., ҳолатига лойиха-киривуви ишлари қиймати	2022 йил учун капитал қўйималар лимити	Лойиха-смета ҳужжатларини буюртмачига топириши муддати (ой, йил)	Тендер (танлов)лар натижасига бўйича раснома ва санаси	Лойихачи ташкилот номи
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	
		Жиззах вилояти	17,0 км 2 объект		26 560,90		717,03		717,03				
6		Ш.Рашидов тумани "Ўзбекистон" ФХУ (эски номи "Октош ота" МФЙ)да куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	17,0 км 2 объект		26 560,90	ИЛ	717,03		717,03			лот № 81659 16.05.2022 й	ГУП O'ZBEKKOMMUNALLO YIHAQURILISH
		Қашқадарё вилояти	33,6 км 7 объект		39 156,00		1 155,05		1 155,05				
7		Қосон тумани "Дўстлик" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	19,4 км 4 объект		23 529,00	ИЛ	695,05		695,05			лот № 62440 20.04.2022 й	"QISHLOQQURILISHLOY IHA" MЧЖ
8		Яқкабоғ тумани "Айгиркўл" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	14,2 км 3 объект		15 627,00	ИЛ	460,00		460,00			лот № 62614 20.04.2022 й	"QISHLOQQURILISHLOY IHA" MЧЖ
		Навоий вилояти	6,8 км 3 объект		10 600,00		302,02		302,02				
9		Қармана тумани "Дўстлик" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	5,2 км 1 объект		5 600,00	ИЛ	160,02		160,02			лот № 64985 18.04.2022 й	"QISHLOQQURILISHLOY IHA" MЧЖ
10		Қизилтепа тумани "Малиқобод" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	1,6 км 2 объект		5 000,00	ИЛ	142,00		142,00			лот № 62896 18.04.2022 й	"QISHLOQQURILISHLOY IHA" MЧЖ
		Наманган вилояти	40,0 км 4 объект		27 500,00		800,05		800,05				
11		Чуст тумани "Гулзор" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	22,0 км 2 объект		14 500,00	ИЛ	420,05		420,05			лот № 67325 19.04.2022 й	"QISHLOQQURILISHLOY IHA" MЧЖ
12		Поп тумани "Миришкор" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	18,0 км 2 объект		13 000,00	ИЛ	380,00		380,00			лот № 74710 28.04.2022 й	"QISHLOQQURILISHLOY IHA" MЧЖ
		Самарқанд вилояти	47,5 км 3 объект		125 000,00		2 290,05		2 290,05				
13		Булунгур тумани "Ғубдон" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	20,0 км 2 объект		66 000,00	ИЛ	1 150,05		1 150,05			лот № 69460 21.04.2022 й	ГУП O'ZBEKKOMMUNALLO YIHAQURILISH
14		Уرғут тумани "Мерганжи" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	27,5 км 1 объект		59 000,00	ИЛ	1 140,00		1 140,00			лот № 69458 21.04.2022 й	ТАМIRLOYIHA MЧЖ

№	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
№	Т/Р	Объектлар номи ва манзили	Лойiha куввати хос бирликлда	Курилиш бошланги ва фойдаланишга топшириш йили	Объект курилишининг хисобид (дастлабдан) тахминий киймати	Лойiha босқич ДТИА, ДТИХ, ТИА, ТИХ, Л, ИХ, ИЛ, ТХ	Объектнинг лойiha-кидирув ишлари киймати*	Лойiha бошдан 01.01.22 й. холатига бажарилган лойiha-кидирув ишлари киймати	01.01.22 й., холатига лойiha-кидирув ишлари қолдиқ киймати	2022 йил учун капитал кўрсаткичлар лимити	Лойiha-смета ҳужжатларини буюртмачига топшириш мuddати (ой, йил)	Тендер (таъло)лар натижасига бўйича байёнома рақами ва санаси	Лойihачи ташкилот номи
		Объектлар номи ва манзили	Лойiha куввати хос бирликлда	Курилиш бошланги ва фойдаланишга топшириш йили	Объект курилишининг хисобид (дастлабдан) тахминий киймати	Лойiha босқич ДТИА, ДТИХ, ТИА, ТИХ, Л, ИХ, ИЛ, ТХ	Объектнинг лойiha-кидирув ишлари киймати*	Лойiha бошдан 01.01.22 й. холатига бажарилган лойiha-кидирув ишлари киймати	01.01.22 й., холатига лойiha-кидирув ишлари қолдиқ киймати	2022 йил учун капитал кўрсаткичлар лимити	Лойiha-смета ҳужжатларини буюртмачига топшириш мuddати (ой, йил)	Тендер (таъло)лар натижасига бўйича байёнома рақами ва санаси	Лойihачи ташкилот номи
		Сурхондарё вилояти	38,9 км 10 объект		93 710,00		2 048,10			2 048,10			
15		Ангор тумани "Шарк гули" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	8,3 км 3 объект		21 030,00	ИЛ	460,10			460,10		лот № 77185 10.05.2022 й	"SALOVAT SIFAT LOYIHA" МЧЖ
16		Жаркўрғон тумани "Қораянгок" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	7,5 км 3 объект		19 930,00	ИЛ	436,00			436,00		лот № 77174 10.05.2022 й	"SALOVAT SIFAT LOYIHA" МЧЖ
17		Сарносие тумани "Југфиқор" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	13,8 км 1 объект		28 450,00	ИЛ	620,00			620,00		лот № 77178 10.05.2022 й	"SALOVAT SIFAT LOYIHA" МЧЖ
18		Бойсун тумани "Мустанкилик" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	9,3 км 3 объект		24 300,00	ИЛ	532,00			532,00		лот № 77187 10.05.2022 й	"SALOVAT SIFAT LOYIHA" МЧЖ
		Сирдарё вилояти	5,6 км 3 объект		8 300,00		223,30			223,30			
19		Янгиер шаҳар "А.Жомий" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	5,6 км 3 объект		8 300,00	ИЛ	223,30			223,30		лот № 63607 13.04.2022 й	"MIRZACHOL AGRO QURILISH LOYIHA" МЧЖ
		Тошкент вилояти	15,8 км 1 объект		16 500,00		445,51			445,51			
20		Чирчиқ шаҳри "Ифтихор" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	13,8 км		11 000,00	ИЛ	297,01			297,01		лот № 64767 16.04.2022 й	ШИУ SHUKURJON
21		Олмалик шаҳри "И.Каримов" ва "А.Қаххор" МФЙларда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	2,0 км 1 объект		5 500,00	ИЛ	148,50			148,50		лот № 63324 16.04.2022 й	ШИУ SHUKURJON
		Фаргона вилояти	77,2 км 6 объект		170 414,00		4 343,25			4 343,25			
22		Фаргона тумани "Янги аср" МФЙда куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини куриш	5,2 км 1 объект		7 500,00	ИЛ	213,05			213,05		лот № 61559 12.04.2022 й	ГУП O'ZBEKKOMMUNALLO YIHAQURILISH
		Фаргона шаҳри "Эко шаҳар" массивида куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик сув тизимларини куриш	24,7 км 1 объект		75 897,00	ИЛ	1 555,00			1 555,00		лот № 90066 26.05.2022 й	ГУП O'ZBEKKOMMUNALLO YIHAQURILISH
23		Фаргона шаҳри "Эко шаҳар" массивида куриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг оқова сув тизимларини куриш	19,1 км 1 объект		27 957,00	ИЛ	1 055,20			1 055,20		лот № 90068 26.05.2022 й	ГУП O'ZBEKKOMMUNALLO YIHAQURILISH

№	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
Т/Р	Объектлар номи ва манзили	Лойiha қуввати ҳос қилишда бирликда	Қурилиш бошланғич ва фойдаланишга топшириш йили	Объект қурилишнинг ҳисобий (дастлабки) тахминий қиймати	Лойiha босқичи ДТИА, ДТИХ, ТИА, ПИХ, Л, ИХ, ИЛ, ТХ	Объектнинг лойiha-қидирув ишлари қиймати*	Лойiha бошдан 01.01.22 й. ҳолатига бажарилган лойiha-қидирув ишлари	01.01.22 й., ҳолатига лойiha-қидирув ишлари қолдиқ қиймати	2022 йил учун капитал қўйилмалар лимити	Лойiha-смета ҳужжатларини буюртмачига топшириш муддати (ой, йил)	Тендер (таъло)лар натижасига бўйича байёнома рақами ва санаси	Лойihaчи ташкилот номи
1												
24	Ёзевон тумани "Юкори сойбўйи" МФЙда қуриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини қуриш	28,2 км 3 объект		59 060,00	ИЛ	1 520,00			1 520,00		лот № 81665 12.05.2022 й	ЎЗБЕККОММУНАЛЛО УЎНАҚУРИЛИШ
	Хоразм вилояти	14,9 км 7 объект		40 000,00		1 190,05			1 190,05			
25	Янги тумани "Дўстлик" МФЙда қуриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини қуриш	4,5 км 3 объект		25 200,00	ИЛ	750,05			750,05		лот № 69077 27.04.2022 й	ЎЗБЕККОММУНАЛЛО УЎНАҚУРИЛИШ
26	Турпоқкала тумани "Обод" МФЙда қуриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини қуриш	8,2 км 2 объект		7 900,00	ИЛ	235,00			235,00		лот № 66943 27.04.2022 й	ЎЗБЕККОММУНАЛЛО УЎНАҚУРИЛИШ
27	Хонка тумани "Ёш куч" МФЙда қуриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини қуриш	2,2 км 2 объект		6 900,00	ИЛ	205,00			205,00		лот № 78803 07.05.2022 й	ЧП MERIDIAN LOYIHA
	Тошкент шаҳри	2,3 км		1 496,10		40,03			40,03			
28	Сергели тумани "А.Навоий" массивида қуриладиган "Янги Ўзбекистон" массивининг ичимлик ва оқова сув тизимларини қуриш	2,3 км		1 496,10	ИЛ	40,03			40,03		лот № 64711 14.04.2022 й	Architects Project Group МЧЖ

“Қирғизқилич” ЗСUVТАМ МАШИНА ҚУРИЛИШ ИШЛАРИ ТУЗУМЛАШТИРАВИШИ ШАХСАТ ШАХСАТ
“Сув таъминоти ва оқова сув объектлари қурилиши бўйича инжиниринг компанияси” УЖД
Директори в.в.б
Х.Якубов
2022 йил _____

“Қелишди”
Ўзбекистон Республикаси
Молия вазирлиги

“Қелишди”
Ўзбекистон Республикаси
Иқтисодий тараққиёт ва камбағалликни қисқарттириш вазирлиги

2022 йил " 8 " 06

2022 йил " " _____

Хоразм